



NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA O'TGAN ZAMON SHAKLLARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATI

M. B. Tillayeva

*UrDU "Roman-german filologiyasi" kafedrası
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

S. X. Boboxonova

*Urganch Davlat Universiteti xorijiy filologiya
fakulteti "Roman-german filologiyasi" kafedrası
tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis va o'zbek tillarida o'tgan zamonning semantik va pragmatik xususiyatlari va o'tgan zamon shakllari haqida so'z boradi. Barchaga ma'lumki, o'tgan shamon shakllarini misollarsiz va namunalarsiz tasavvur etish mushkul. Tilshunoslikda o'tgan zamon tushunchasiga turlicha ta'rif berilgan.

Kalit so'zlar: Pragmatika, Semantik, o'tgan zamon, o'tgan zamon qo'shimchalari, zamon kategoriyasi.

Semantika (yun. semantikos — bildiruvchi, ifodalovchi) — 1) til yoki uning bironbir birligi (so'z, so'zning grammatik shakli, frazeologizm, so'z birikmasi, fan) orqali ifodalanadigan butun mazmun, ma'no, axborot; 2) turli til birliklarining ma'noviy tomonini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi; semasiologiya. Ayrim lugaviy unsurlar tushunchalarni bildiradi, bu tushunchalarni esa faqat to'liq gaplar va ularning qo'shilmalari ifodalashi mumkin. Binobarin, S.ning o'rganish ob'yekti ham, asosan, to'liq, mustaqil ma'noli so'zlar va gaplarning ma'nolar tizimidir. S. fan sifatida 19-asrning 2-yarmidan rivojlana boshlagan va hozirgacha bir-biridan sifat jihatidan farqlanuvchi bir necha bosqichni o'tgan. Semantika axborot texnologiyalarda ham qo'llaniladi.

Pragmatika (yun. pragma, pragmatos — ish, harakat) — semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi sub'yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'i. Pragmatika haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Ch. Pirs tomonidan o'rtaga tashlangan; yana bir amerikalik olim Ch. Morris ushbu g'oyani rivojlantirgan va "Pragmatika " terminini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan.

Fe'lning bildirgan xarakterning bajarilishi, albatta ma'lum vaqtda bo'ladi. Demak, xarakter vaqt (Zamon) tushunchasi bilan aloqador bo'ladi. Fe'l bildirgan xarakter obyektiv xarakterning tilidagi ifodasi bo'lganidek, fe'llardagi zamon ham xarakterning bajarilishi bilan aloqador bo'lgan obyektiv vaqtning tildagi ifodasining o'zi Grammatik zamon kategoriyasi hisoblanmaydi. Grammatik zamon kategoriyasi xarakterning nutq momentiga ham subyekt tomonidan belgilanadigan qandaydir vaqt bo'ladi bo'lmay, obyektiv zamon (vaqt) ning so'zlovchi gapi, so'zi (nutqi) to'g'ri kelgan bo'lagidir.

Xarakter bajarilish vaqtining nutq momentiga munosabatiga qarab fe'lning 3 zamon farqlanadi:



1. Nutq momentiga bo`lgan harakat –O`tgan zamon;
2. Nutq momentiga ham davom etayotgan (tugamagan) xarakat-hozirgi zamon:
3. Nutq momentidan keyin bo`ladigan xarakat – kelasi zamon .

Zamon ma`nolari maxsus formalar orqali ifodalanmaydi va bu formalar fe`lning zamon formalari deb ataladi.

Ma'lumki, zamon kategoriyasi harakat va holatning nutq sodir etilayotgan paytiga munosabatini bildiradi. Harakat bajarilish vaqtining nutq paytiga munosabatiga ko'ra, har ikki tilda ham uch xil zamon farqlanadi. Biroq o'zbek tilida rus tiliga nisbatan zamon shakllari ko'proq. Masalan, birgina o'tgan zamon fe'li turli affikslar olib, (uzoq, yaqin, hikoya, davom, maqsad) kabi ma'nolarni ifodalaydi. Rus tilida esa fe'ling qat'iy uch zamoni: o'tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllari ajratiladi. Bunda o'tgan va hozirgi zamon bittadan, kelasi zamon shakli esa ikki xil ko'rinishga ega bo'lib, bu, asosan, fe'ling vid (tur)i bilan bog'liqdir. Fe'ling bu ma'nolari maxsus grammatik shakllar yordamida yuzaga chiqadi. O'tgan zamonlar (Perfekt, Plusquamperfekt va Imperfekt). Qiyoslanayotgan ikki tilda mavjud bo'lgan o'tgan zamon fe'llari orasidagi asosiy farq shundan iboratki, o'zbekcha fe'l ot bilan shaxs va sonda moslashsa, nemis tilida tilidagi bunday fe'l rod va sonda moslashadi. Masalan:

Men keldim.– Ich bin gekommen. Sen kelding. – du bist gekommen. U keldi. – Sie/Er ist gekommen.

Ko'plikdagi o'tgan zamon fe'li rodlar bo'yicha o'zgarmaydi. Ma'lumki, o'zbek tilida o'tgan zamon fe'lining besh xil ko'rinishi bor: oldi, olgan (edi), olibdi, olardi, olmoqda edi, olayotgan edi. Bu shakllarni hosil qilishda ko'pincha to'liqsiz fe'ldan foydalaniladi. Rus tilida esa fe'ling tur (vid) idan kelib chiqib, o'tgan zamonning ikki xil shakli hosil qilinadi. O'zbek tilida har qanday fe'l bir asosga ega bo'ladi. Nemis tilida esa har bir fe'l ikki xil asosga ega bo'lib, biri infinitiv asosi, ikkinchisi hozirgi yoki sodda kelasi zamon asosi hisoblanadi. Masalan, Kommen fe'lining infinitiv asosi Komm-, hozirgi yoki sodda kelasi zamon asosi bo'ladi.

O'tgan zamon hikoya fe'li kutilmaganda, qisqa vaqt ichida nutq so'zlanib turgan paytdan ilgari bajarilgan (yoki bajarilmagan) ish-harakatni hikoya qilish, tasvirlash yo'li bilan ifodalaydi. Masalan: Halol rizq istab, mehnat qilib, charchab uxlagan kishi shu kechani ma'rifat qilingan holda o'tkazibdi (Hadisdan). O'tgan zamon hikoya fe'li fe'l negiziga –b (-ib) o'tgan zamon ravishdosh qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan (II guruh «A» ko'rinishdagiA» ko'rinishdagi tuslovchilar bilan) shakllanadi:

O'tgan zamon hikoya fe'lining eslay (eslatish) ma'no ko'rinishi ham bor. Bu shakl o'tgan zamon –b (-ib) ravishdoshiga edi to'liqsiz fe'lini biriktirib tushlash orqali hosil bo'ladi: o'qib edim, o'qib eding, o'qib edi; o'qib edik, o'qib edingiz, o'qib edilar kabi. Masalan: Urush tugasa, biznikiga mehmongan borasiz, o'shanda ayamning qanaqaligini ko'rasiz deb edi (S.Zunnunova).

O'tgan zamon davom fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan ilgari ma'lum bir muddat davomli bo'lgan yoki takrorlanib turgan ish-harakatni eslash ma'no ottenkasi bilan ifodalaydi. Masalan: 1. Bu yerda Boburning doim o'z kuchi bilan birga olib yuradigan kitoblari saqlanar edi (P.Qodirov). 2. Daryolardan kuylab o'tardim, Ertaklarga quloq tutardim, Hammasini tinglardim, ammo O'xshashini topmasdim aslo (H.O.). Bu misollarning birinchisida saqlanar edi fe'li o'tmishda ma'lum bir muddat davomli bo'lgach ish-harakatni ifodalasa, ikkinchisida kuylab o'tardim, quloq tutardim, tinglardim vaqti-vaqti bilan takrorlanib ish-harakatni anglatadi. O'tgan zamon davom fe'li –r(-ar), -yotgan sifatdosh fe'l negiziga hamda -moqda qo'shimchasini olgan sof fe'l negiziga edi to'liqsiz fe'lini biriktirib tushlash (I guruh tuslovchilari bilan) orqali hosil qilinadi. O'tgan zamon maqsad fe'li nutq so'zlangan paytdan ilgari bajarilishi maqsad qilingan, ammo voqe bo'lmagan ish-harakatni ifodalaydi.



Masalan: U bugun Malika bilan xoli gaplashib, ko`nglidagi hamma sir-asrorini to`kib solmoqchi edi (E.Usmonov). Ertasiga qishloqqa chiqadigan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiev A. Fe`l
2. G`ulomov F.A Fe`l – Toshkent 1954.- 188b
3. Mirziyoyev . M, Usmonov.S , Rasulov. I. O`zbek tili Toshkent, 1962. – 140b.
4. BegmatovE., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. I qism. – Toshkent: Navro`z, 1997. – 93b.
5. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)